

Date: 29th October-2025

**KORPARATIV BOSHQARUVDA QIMMATLI QOG'OZLAR MUOMALASINI
TASHKIL ETISH.**

Muallif: Xalimov Ozodbek Xasan o'g'li

Toshkent Davlat Iqtisodiyot Universiteti "Korporativ

Boshqaruv" ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Ibragimov G'anijon G'ayratovich

Qo'shma ta'lim dasturlarini muvofiqlashtirish markazi boshlig'i, Innovatsion
Menejment kafedrasida dotsenti, Phd, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
g.ibragimov@tsue.uz

Annotatsiya: Korporativ boshqaruvda qimmatli qog'ozlar bozorini tashkil etish iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va investitsiya muhitini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori korxonalar uchun kapital jalb qilishning samarali vositasi bo'lib, ularning moliyaviy mustaqilligini oshirish va biznesni kengaytirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, qimmatli qog'ozlar bozorining rivojlanishi nafaqat korporativ boshqaruv samaradorligini oshiradi, balki iqtisodiy o'sishga ham turtki beradi. Shu sababli, mazkur bozorning rivojlanishini jadallashtirish uchun qonunchilikni yanada takomillashtirish, xususi kompaniyalarni IPOga chiqarishni qo'llab-quvvatlash va institutsional investorlarni jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiyalash sharoitida qimmatli qog'ozlar bozori infratuzilmasini rivojlantirish hamda ular faoliyatini isloh qilish, undagi barcha muammolarni bartaraf etishga qaratilgan faoliyat olib borilmoqda.

Kalit so'zlar: Broker, Aksiya, Emitent, Kliring, Qimmatli qog'ozlar bozori, Fond birjasi, Investor, Veksel

Korporativ Boshqaruv va Qimmatli Qog'o'zlar Bozori tushunchasi.

1. Kirish

Hozirgi vaqtda jahon miqyosida korporativ boshqaruv sohasida jadal rivojlanish kuzatilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlardan ko'zlanayotgan asosiy maqsad mulkiy xilma-xillik asosida iqtisodiy faoliyatni yanada jadallashtirish, mulklarni davlat tasarrufidan chiqarib, nodavlat sektorga o'tkazish va shu orqali turli o'z-o'zini boshqaruvchi xususi iqtisodiy xo'jalik birliklarini vujudga keltirish ekanligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunday iqtisodiy islohotlarning muvaffaqiyati ko'p jihatdan davlat tasarrufidan chiqarilgan mulklarni samarali tarzda qayta harakatga keltirish, qo'shma korxonalar tuzish, korxonalarni aksiyadorlik jamiyatlariga aylantirish, ayniqsa, kichik hamda xususi tadbirkorlikni rivojlantirishga bog'liqdir. Korporativ boshqaruvning iqtisodiy mohiyati uzoq yillardan buyon o'rganilib kelinmoqda va bu borada tadqiqotchilarning fikrlari xilma-xilligiga guvoh bo'lish mumkin. "Korporativ boshqaruv - korporatsiya mulkdorlarining korporatsiya kapitalini shakllantirishga, undan foyda olish maqsadida yanada samarali



Date: 29th October-2025



foydalanishga hamda olingan daromadlarni korporativ munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'rtasida adolatli taqsimlashga qaratilgan strategik muhim qarorlarni belgilash, ta'riflash va qabul qilishga doimiy va real ta'sirini ta'minlashdagi ongli, bevosita ishtirokidir", deb izohlanadi. Qimmatli qog'ozlar bozori — bu investitsiya, kapitallashuv va moliyaviy resurslarni jalb qilish imkoniyatlarini taqdim etadigan muhim moliyaviy platformadir. Bozor orqali davlatlar, kompaniyalar va boshqa yuridik shaxslar o'zlarining investitsiya va qarz vositalarini sotish yoki sotib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Qimmatli qog'ozlar bozori, aksiyalar, obligatsiyalar va boshqa moliyaviy vositalar orqali amalga oshiriladi. Huquqiy nuqtayi nazardan, an'anaviy tarzda qimmatli qog'ozlar ancha keng ma'noda ko'rib chiqiladi – ya'ni bular mulkiy huquqlarni belgilangan shaklga va majburiy rekvizitlarga amal qilgan holda tasdiqlovchi hujjatlar bo'lib, ularni taqdim etgan taqdirdagina mazkur huquqlarni amalga oshirish yoki boshqa shaxslarga berish mumkin bo'ladi. Bu ma'noda qimmatli qog'ozlarga quyidagilar kiradi: obligatsiyalar, veksellar, cheklar, depozit va jamg'arma sertifikatlar, bankning taqdim qiluvchiga pul beriladigan jamg'arma daftarchasi hamda qonun hujjatlari bilan qimmatli qog'ozlar jumlasiga kiritilgan boshqa hujjatlar.

2. O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori va qonunchiligi.

O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozori, ya'ni fond bozorining rivojlanishi iqtisodiyotning ajralmas bir qismiga aylanishi bilan birga, moliyaviy tizimni tartibga solish, investorlar uchun imkoniyatlar yaratish va mamlakat iqtisodiyotining global integratsiyasini ta'minlash maqsadida o'zgarishlar sodir bo'lgan. O'zbekistonning qimmatli qog'ozlar bozori, 1991-yilda mustaqillikni qo'lga kiritganidan so'ng, o'ziga xos jarayonni boshlab, bozor infratuzilmasi va qonunchilik bazasini shakllantirdi. O'zbekiston Respublikasida qimmatli qog'ozlar bozori 1994-yilda tashkil topgan. Bu bozor dastlab davlat qimmatli qog'ozlari, aksiyalar va obligatsiyalar sotilishi orqali rivojlangan. O'zbekiston fond bozorining yosh bolishiga qaramay, uning tarixida opsiyonlar va fyuchers boyicha aniq bitimlar bilan bog'liq sahifalar joy oldi. Ayrim opsiyon shartnomalari aynan shu yillarda "Toshkent" birjasining fond bolimida tuzilgan. 1990-yillardan boshlangan islohotlar davomida, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorining huquqiy asoslari shakllantirildi va bugungi kunda u xalqaro standartlarga mos keladigan darajada tartibga solinmoqda. O'zbekiston fond bozoridagi qonunchilikning rivojlanishi va zamonaviy talablarga moslashtirilishi moliyaviy sektorning ishonchliligi va samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.²⁵ Qimmatli Qog'ozlar Bozorini Tartibga Solish To'g'risidagi Qonun (2002). Bu qonun, O'zbekistonda qimmatli qog'ozlar bozorini boshqarish, nazorat qilish va rivojlantirish uchun asosiy huquqiy asosni yaratdi.

²⁵ <https://www.uzse.uz/rules?locale=uz#>

Date: 29th October-2025

3. Qimmatli qog'ozlar bozorida korporativ boshqaruv strategiyalari va kapital jalb qilish usullari.

Qimmatli qog'ozlar bozorida korporativ boshqaruv strategiyalari kompaniyalarning moliyaviy barqarorligini ta'minlash, investorlar bilan samarali munosabatlar o'rnatish va bozor ishtirokchilarining ishonchini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasidir. Bugungi kunda fond bozorida keng qo'llanilib kelayotgan bir qancha strategiyalar mavjud, ular: **Moliya strategiyasini shakllantirish:** Korporativ boshqaruvning muhim jihatlaridan biri kompaniyaning moliyaviy strategiyasini ishlab chiqishdir. Bu strategiya kompaniyaning uzoq muddatli moliyaviy maqsadlariga erishish uchun zarur bo'lgan resurslarni aniqlash va ulardan samarali foydalanishni o'z ichiga oladi. **Qimmatli qog'ozlar emissiyasi va joylashtirish strategiyalari:** Kompaniyalar o'z kapitalini oshirish maqsadida aksiyalar va obligatsiyalar kabi qimmatli qog'ozlarni chiqaradilar. Ushbu emissiya jarayonini samarali rejalashtirish va qimmatli qog'ozlarni investorlar orasida muvaffaqiyatli joylashtirish korporativ boshqaruvning muhim strategik qarorlaridan biridir. **Axborot oshkoraligi va investorlar bilan aloqalar:** Kompaniyaning moliyaviy holati, faoliyati va rejalari haqida to'liq va aniq axborot berish investorlarning ishonchini oshiradi. Axborot oshkoraligi qimmatli qog'ozlar bozorida kompaniyaning obro'sini mustahkamlaydi va investorlar bilan samarali aloqalarni ta'minlaydi. **Qonunchilikka rioya qilish:** Qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yurituvchi kompaniyalar amaldagi qonunchilik talablariga qat'iy rioya qilishlari zarur. Bu nafaqat huquqiy muammolarning oldini oladi, balki investorlar va boshqa manfaatdor tomonlar oldida kompaniyaning ishonchliligini oshiradi. **Xususiy lashtirish** — bu davlatga tegishli mulk yoki korxonalarni xususiy sektorga o'tkazish jarayoni bo'lib, uning asosiy maqsadi iqtisodiy samaradorlikni oshirish, bozor mexanizmlarini kuchaytirish va investorlarni jalb qilishdir. Bu jarayon orqali korxonalar mustaqil boshqaruvga o'tadi, raqobat muhiti shakllanadi va innovatsion rivojlanishga yo'l ochiladi. ²⁶

Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat masalasi birinchi o'rinda turadi, xususiy lashtirish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushuni kamaytirib xususiy sektor faoliyatini rivojlantirish. Buning natijasida xorijiy investorlarni jalb qilish qobiliyati mavjud bo'ladi. **IPO** — kompaniyaning aksiyalarini ilk bor ommaviy savdoga chiqarish jarayoni bo'lib, bu orqali kompaniya kapital jalb qiladi va investorlarga ochiq bozor orqali ulush sotadi. Birinchi navbatda reguliator talablariga mos hujjatlar tayyorlanadi va investorlarni jalb qilish uchun ko'proq reklama, taqdimot tadbirlari va roadshowlar o'tkaziladi. Oxirgi bosqich kompaniya tomonidan chiqarilgan aksiyalar fond birjaga joylashtiriladi va kompaniya ommaviy kompaniya deb elon qilinadi. Davlatga tegishli yirik korxonalar xususiy lashtirish jarayonida IPOga chiqishi mumkin. Bu yo'l orqali davlat korxonalari modernizatsiyaga mablag' jalb qiladi, xususiy sektor ishtirokchilari esa kompaniyaning rivojlanishida bevosita qatnashadi. Masalan, xalqaro tajribada Saudi Aramco IPOsi bu jarayonning yirik namunasidir. O'zbekistonda so'nggi yillarda qimmatli qog'ozlar bozorini

²⁶ https://uz.wikipedia.org/wiki/Xususiy_lashtirish



Date: 29th October-2025

rivojlantirish va davlat korxonalarini xususiylashtirishga katta e'tibor berilmoqda. Masalan, O'zbektelekom va UzAuto Motors kabi korxonalarni ommaviy aksiyadorlik jamiyatiga aylantirish rejalashtirilmoqda. Xususiylashtirish va IPO jarayonlari O'zbekiston iqtisodiyotini yanada liberallashtirish, kapital bozorini chuqurlashtirish va xalqaro investorlarni jalb qilishga xizmat qiladi. Bunda korporativ boshqaruv standartlarini oshirish, huquqiy bazani mustahkamlash va investorlar bilan samarali muloqot tizimini yaratish muhim ahamiyatga ega.

Artel Electronics MCHJ tajribasi.

O'zbekistondagi yetakchi maishiy texnika va elektronika ishlab chiqaruvchisi bo'lib, kompaniya tarkibida 13 ta sho'ba korxonasi mavjud. Kompaniya o'zining Artel brendi ostida mahsulotlar taklif etadi va Shivaki, Avalon, Vesta hamda Royal kabi kompaniyalar bilan hamkorlik qiladi. Shuningdek, Samsung va Viessmann kompaniyalarining O'zbekistondagi rasmiy mintaqaviy hamkori hisoblanadi.

Moliyaviy ko'rsatkichlar va bozor dinamikasi: ArtelElectronics Group kompaniyasining yillik daromadi 450 million AQSH dollaridan oshadi. Bu ko'rsatkich kompaniyaning bozordagi yetakchi o'rnini va moliyaviy barqarorligini ko'rsatadi. 2023-yilda "Fitch Ratings" xalqaro reyting agentligi Artel Electronics MChJning kredit reytingini 'B' darajasida 'ijobiy' prognoz bilan baholadi. Bu kompaniyaning moliyaviy ishonchliligi va barqarorligini tasdiqlaydi.

Qimmatli qog'ozlar chiqarish tajribasi va natijalari: Hozirgi kunda mavjud ma'lumotlarga ko'ra, Artel Electronics MChJ o'z aksiyalarini ommaviy taklif (IPO) orqali qimmatli qog'ozlar bozoriga chiqarmagan. Shu sababli, kompaniyaning qimmatli qog'ozlar chiqarish tajribasi va natijalari haqida ma'lumotlar mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://www.uzse.uz/rules?locale=uz#>
Toshkent Respublika fond birjasi dastlabki faoliyati to'g'risidagi ma'lumotlar.
2. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Xususiylashtirish>

